

## О‘ZGA GAPLI QURILMALAR TASNIFI (SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODI MISOLIDA)

*Normamatova Shohista*

*Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti*

*Tillarni o‘qitish o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi*

*2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Dilrabo Ergasheva*

*Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi*

**Kalit so‘zlar:** O‘zga gap, qurilma, ko‘chirma gap, muallif gapi, ko‘chirma gap, o‘zlashtirma gap, tinish belgilarining qo‘llanishi.

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o‘zga gapli qurilmalar ya’ni ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar, ularning lisoniy xususiyatlari, nutqiy voqealanishi, lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi xususida so‘z yuritilgan va Shukur Xolmirzayev ijodi misolidagi gaplar tahlilga tortilgan.

### KIRISH

So‘zlovchi nutqida ishlatilgan boshqa shaxsning gapiga o‘zga gap deyiladi. Ayrim hollarda so‘zlovchi o‘z nutqida o‘zganing gapini ham ishlatishi mumkin. Bunday qo‘llangan o‘zgalarning gapi so‘zlovchi nutqida hech qanday o‘zgarishsiz yoki mazmuni saqlangan, ammo grammatik xususiyatlari o‘zgartirilgan holda qo‘llanilishi mumkin. Shunga ko‘ra o‘zga gaplar 2 turga bo‘linadi:

1. Ko‘chirma gap
2. O‘zlashtirma gap

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zgalarning gapi semantik, leksik va grammatik xususiyatlari saqlangan holda, mustaqil gap shaklida muallif gapi bilan birga ishlatilsa bu gap ko‘chirma gap deyiladi. Ko‘chirma gap bir so‘zdan, bir gapdan yoki bir necha gapdan ba’zan bir abzasdan iborat bo‘lishi mumkin. Ko‘chirma gapdagi mazmun tinglovchi ga qaratiladi. Muallif gapi ko‘chirma gapning kimga qarashli ekanini ko‘rsatadi. Kesimi fe’l, ot yoki boshqa turkum so‘zlari bilan ifodalana oladi. Masalan "Xo‘p, bobojon", - dedi Sadaf. Shu kishi rahmatli aytgich edi-da: "O‘limdan qochish kerak! Lekin o‘limniyam bo‘yinga olib yurish kerak"[3,3]. Ko‘chirma gapdan asosiy maqsad boshqa shaxs gapining barcha leksik, sintaktik, intonatsion xususiyatlarini saqlashdir.

Shakli o‘zgartirilib, mazmun saqlangan o‘zgalarning gapi o‘zlashtirma gap deyiladi. Bunday gaplarda o‘zgalarning gapi leksik, semantik, grammatik va ohang jihatidan o‘zlashtirilib beriladi, ya’ni o‘zgalarning fikri so‘zlovchi tomonidan hikoya qilinadi. Masalan: "Yomonga, nomardga o‘lim yo‘qligini aytgan-ku"[3,2].

О'zlashtirma gap va ko'chirma gap bir biridan grammatik jihatdan biroz farq qiladi. Ko'chirma gaplarda o'zganing gapdagi intonatsiya, his-tuyg'u va kechinmalarni ifodalash uchun ko'chirma gapning o'zida undov va taqlid so'zlardan, yuklamalardan foydalaniladi. Masalan, "Voy, inakni o'ldirdingiz-e beshafqat!" deb yig'lab yubordi xotini [2,12]. "Ha, bu gapingam maqul. U yer- bu yerini atay sindirib qo'ysang-a?" dedi [2,14]. Ushbu gaplardagi voy, beshafqat undov so'zlari va -a yuklamasi orqali o'zganing vaziyatdagi holatini yoritishda foydalanilgan. Ushbu ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish jarayonida bu birliklar tushirib qoldiriladi. "Xotini unga inakni beshafqatlarcha o'ldirganligini yig'lab aytdi" shaklida o'zlashtirma gapga aylanadi. Ko'chirma gapdagi beshafqat undov so'zi o'zlashtirma gapga o'tganda ravish so'z turkumiga o'tgan. Ikkinchi gap esa "U uning bu gapi ham ma'qul ekanligini u yer- bu yerini atay sindirib qo'ysa nima bo'lishini taajjublanib so'radi" shaklida o'zgaradi. Ushbu gapda esa ko'chirma gapdagi -a hayrat-taajjub yuklamasi o'zlashtirma gapda taajjublanib ravishi bilan almashgan. Sintaktik tahlil qilinganda ham o'zga gapli qurilmalarda so'zlarning sintaktik vazifasi o'zgaradi. Buni quyida bir necha misolda ko'rib chiqamiz.

"Rost, To'rajon, jindek sabr qiling", - dedi qorovul chol ham. Ushbu ko'chirma gapni endi o'zlashtirma gapga aylantiramiz. Qorovul chol To'rajonga jindek sabr qilishini aytdi. Endi bu ikki gapni sintaktik tahlil qilamiz ko'chirma gapdagi To'rajon undov so'zi o'zlashtirma gapda to'ldiruvchi vazifasini bajaryapti, sabr qiling buyruq maylidagi kesim ham o'zlashtirma gapda to'ldiruvchi bo'lib kelgan.

Ko'chirma gapning o'zlashtirma gapdan ko'ra ifoda imkoniyati kengroq.

Shuning uchun ham qahramonlarning ichki kechinmalari va his-tuyg'ularini kitobxonga kengroq yanada chuqurroq anglatish maqsadida ko'chirma gaplardan foydalaniladi. O'zlashtirma gaplar esa ko'proq publitsistik va ilmiy, rasmiy uslublargagina xos. Bundan tashqari badiiy asarda yozuvchi qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, uning so'z imkoniyatlari va qaysi hududda yashashini jonliroq ifodalashda ham ko'chirma gapdan foydalanadi. Masalan, "Kak eto? Tushuntirib bering, Ismatjon", - dedi Odil aka va menga qarab kuldi [3,199]. Ushbu gapdagi "kak eto" ruscha leksema orqali yozuvchi Odil akaning so'z imkoniyati ko'proq rus so'zligiga moyil ekanligini ifodalagan. Ammo bu ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish jarayonida ushbu imkoniyat yo'qoladi. Keyingi "Qayta borasiz, okaxon?", - dedi shofyor mashinani jildirib [3,217] gapidagi qatga, okaxon so'zlarini qo'llash orqali yozuvchi qahramonning shevasidan foydalanib qaysi hudud vakili ekanligini ochib bergan.

Ammo ko'chirma gapdagi ifoda imkoniyatidan ba'zi o'rinlarda foydalanish nutqiy g'alizlikni yuzaga keltiradi, ayniqsa, og'zaki nutqda.

Ommaviy axborot vositalarida teleboshlovchilar, yoki rasmiy uslub vakillari o'zlashtirma gaplardan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Adabiyot

atomdan kuchli. Ammo uni o‘tin yorishga sarflamaslik kerak",- dedi Abdulla Qahhor degandan ko‘ra Abdulla Qahhor adabiyotning atomdan ham kuchli ekanligini, ammo uni o‘tin yorishga sarflamaslik kerakligi uqtirgan deyilsa tinglovchi qulog‘iga yaxshiroq yetib boradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda har ikki o‘zga gapli qurilmalarning ham o‘z vazifalari va ifoda maqsadlari, qo‘llaniladigan o‘rinlari mavjud. Biz esa ulardan hamisha maqsadga muvofiq foydalanishimiz kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. Sayfullaevani, B. Mengliyev, L. Raupova, M. Qurbonov, M. Abulazova, D. Yo‘ldosheva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. " Innovatsiya va rivojlanish nashriyot matbaa-uyi"-2020.
2. Shukur Xolmirzayev, Saylanma II-jild
3. Tanlangan asarlar, "Sharq" nashriyoti. Toshkent, 2020